



BOSHLANG'ICH SINFDAN SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARIDA EKOLOGIK BILIMLARNI CHUQURLASHTIRISHDA EKSORSIYALARNING AHAMIYATI

Amanova Fazilat Rahmanberdi qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi
Bovanova Umida Abduvahobovna
Ilmiy rahbar: Toshkent amaliy fanlar
universiteti o'qituvchisi v.b dotsent

Electron pochta:

umidabovanova8@gmail.com

fazemeamanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18830954>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 26-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 28-fevral 2026 yil

KEYWORDS

*ekologik ta'lim, sinfdan tashqari
mashg'ulot, ekskursiya,
ekologik tafakkur, ekologik
madaniyat, boshlang'ich ta'lim,
amaliy faoliyat, kuzatuv
metodlari, integrativ
yondashuv, tabiatni muhofaza
qilish, ekologik tarbiya,
barqaror rivojlanish, o'quvchi
faolligi.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlarini chuqurlashtirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimida ekskursiyalarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinagan. Maqolada ekologik ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'naltirilganligi tamoyillari asosida tabiiy obyektlarga tashkil etilgan ekskursiyalarning o'quvchilarda ekologik tafakkur, kuzatuvchanlik va mas'uliyat hissini shakllantirishdagi o'rni borasida tavsiyalar keltirilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichida nazariy bilimlarni real muhit bilan bog'lash orqali o'quvchilarning atrof-muhit hodisalarini bevosita idrok etishi, ekologik muammolarni anglash darajasi va tabiatga ehtiyotkor munosabati sezilarli darajada ortishi borasida muxim ko'rsatkichlar keltirilgan. Shuningdek, ekskursiyalar jarayonida integrativ yondashuvdan foydalanish (tabiatshunoslik, ona tili, tasviriy san'at fanlari kesimida) ekologik tushunchalarning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va antropogen ta'sirning kuchayishi sharoitida ekologik madaniyatni erta yoshdan shakllantirish pedagogikaning muhim vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda tabiatga ongli munosabat, mas'uliyat va ekologik tafakkurni rivojlantirish uzluksiz ta'lim konsepsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfdan ekologik bilimlar asosan "Tabiatshunoslik" va integratsiyalashgan fanlar doirasida beriladi. Biroq nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning real ekologik jarayonlarni to'liq anglashiga yetarli sharoit yaratmaydi. Shu bois sinfdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, ekskursiyalar ekologik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim

pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Tabiiy muhitga bevosita chiqish, o'simlik va hayvonot dunyosini kuzatish, mahalliy ekologik muammolarni tahlil qilish o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan mustahkamlaydi.

2. Adabiyotlar sharhi va metodlar

Ekologik ta'lim muammosi pedagogika va metodika fanlarida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda ekologik tarbiya shaxsning tabiatga ongli munosabatini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga tayyorlikni rivojlantirish va ekologik madaniyatni qaror toptirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida ekologik bilimlarni shakllantirishning nazariy asoslari umumdidaktik tamoyillar — tizimlilik, izchillik, ko'rgazmalilik va amaliy yo'naltirilganlik prinsiplari bilan bog'liq holda izohlanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quv jarayonining mantiqiy davomi sifatida ko'rib, ularning o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Ekskursiya metodiga oid ilmiy ishlarda esa bevosita kuzatuv, tabiiy obyektlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot va real muhitda o'rganish jarayoni bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlashi asoslab berilgan. Psixologik-pedagogik manbalarda kichik yoshdagi o'quvchilarda konkret-obrazli tafakkur ustuvorligi qayd etilib, aynan ekskursiyalar ushbu yosh xususiyatlariga mos metod sifatida tavsiya etiladi.

Natijalar. O'rganilgan adabiyotlar tahlilida shuni ko'rsatadiki boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilim darajasi va tabiatga munosabatini aniqlash maqsadida kuzatuv, savol-javob, test va amaliy topshiriqlar metodlaridan foydalanildi. Tajriba ishlari 3–4-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etilib, ular bilan muntazam ravishda tabiatga yo'naltirilgan sinfdan tashqari ekskursiyalar (maktab hovlisi, bog', suv havzasi va mahalliy yashil hududlar) o'tkazildi.

Dastlabki diagnostika natijalari o'quvchilarning ekologik tushunchalari fragmentar xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Ekskursiyalar tizimli ravishda o'tkazilgandan so'ng yakuniy nazorat natijalari o'quvchilarning ekologik bilim darajasi sezilarli oshganini ko'rsatdi. Xususan, tabiiy obyektlarni farqlash, o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkor munosabat bildirish, ekologik muammolar sabablarini tushuntira olish ko'rsatkichlari yuqori darajaga ko'tarildi. O'quvchilarning 70–75 foizi ekologik vaziyatlarni mustaqil tahlil qila olish darajasiga erishdi, dastlab bu ko'rsatkich 40–45 foiz atrofida edi.

3. Muhokama

Ma'lum kuzatishlar natijalari boshlang'ich sinfdan ekologik bilimlarni chuqurlashtirishda ekskursiyalarning metodik jihatdan asoslangan va tizimli tashkil etilishi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar ekskursiya jarayonida o'quvchilarning bevosita kuzatuv, taqqoslash va xulosa chiqarish faoliyati faollashishini tasdiqlaydi. Bu holat kichik maktab yoshidagi bolalarning konkret-obrazli tafakkur xususiyatlariga mos keladi hamda nazariy bilimlarni real tajriba bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ekskursiyaning samaradorligi uning mazmuni va tashkiliy shakliga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Oldindan rejalashtirilgan topshiriqlar, kuzatuv savollari va yakuniy tahlil bosqichining mavjudligi ekologik tushunchalarning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi. Aks holda, ekskursiya faqat ko'rgazmali tadbir sifatida qolib, didaktik natija past bo'lishi mumkin.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ekskursiyalarni boshqa fanlar bilan integratsiyalash ekologik kompetensiyani kompleks rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, kuzatuv natijalarini og'zaki va yozma ifodalash ona tili ko'nikmalarini mustahkamlasa, tasviriy faoliyat orqali tabiat obyektlarini aks ettirish estetik didni shakllantiradi. Demak, ekskursiya nafaqat ekologik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki shaxsning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3.Xulosa

Umumiy natijalari shuni ko'rsatadikiy, boshlang'ich sinfda sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimida ekskursiyalar ekologik bilimlarni chuqurlashtirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini tasdiqladi. Ekskursiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini real tabiiy muhit bilan bog'lash, kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ekologik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bevosita amaliy faoliyat orqali o'zlashtirilgan bilimlar mustahkam va ongli xarakter kasb etishi aniqlandi.

Shuningdek, ekskursiyalar o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabat, ekologik madaniyat va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Ularning ta'limiy samaradorligi mazmunning aniq rejalashtirilishi, kuzatuv topshiriqlarining tizimliliigi hamda yakuniy tahlil bosqichining tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ekskursiyalar ekologik tushunchalarning yanada chuqur va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida ekskursiyalarni muntazam ravishda tashkil etish ekologik tarbiya va ekologik kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi hamda ularni metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror (27 may 2019 yil) <https://lex.uz/> accessed 28 February 2026.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni.
"Multimedia ilovalarining turlari" <http://tami.uz/>.
- 3.Bovanova,U.A, Meliqulova O. F Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof- muhitga ekologik munosabatini oshirishda ekskursiya mashg'ulotlarni o'tkazishda raqamli texnologiyalarni o'rni. "Maktabgacha va maktab ta'limi" Pedagogik psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal 6/2025, 5-iyun. ISSN:3060-4613.
- 4.Bovanova,U.A, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof- muhitga ekologik munosabatni takomillashtirishda didaktik o'yinalarning ahamiyati. Toshkent amaliy fanlar universiteti "XXI asr fanlarda nazariy qonuniyatlardan foydalanishning amaliy muammolari va yechimlari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.2024. may <https://in-academy.uz/index.php/ejar/issue/view/716>.
- 5.Bovanova.U.A Boshlang'ich maktab yoshidagi bolada ekologik madaniyatni shakllantirish xususiyatlari. GHC-2021 International Multidisciplinary Scientific Conference Globe Humanity Congress Hosted from Berlin, Germany <https://conferencepublication.com> July 30th , 2021.
- 6.Bovanova.U.A, Jo'rayeva.M Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ongli munosabatida tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlari. "Zamonaviy ta'lim tizimi taraqqiyotida

integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2025-yil 5-6 may. TAFU. Bet-1400-1405.



INNOVATIVE
ACADEMY